

ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik



2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Andijon Viloyatida kichik tadbirkorlik


Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **24,2** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **13,4** mingtaga yoki **35,6** %ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,5** birlikni tashkil qildi.


Yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2023- yilning yanvar - iyun **2 260** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **32,6** foizga kam demakdir.

2018-2023 yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni o'sishining dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda




2023- yilning yanvar-iyun holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 2023-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng katta ulushi Andijon shaharda **26,9 %** ni tashkil etdi.

1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **24 240** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 260** tani tashkil etdi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



2023 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan **9,6** birlikni tashkil etdi.



2023 - yilning 1-iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida **20,9** birlik, Xo'jaobod tumanida **14,7** birlik, Andijon shahrida **13,8** birlik, Bo'ston tumanida **12,9** birlik, Xonaobod shahrida esa **9,6** birlikni tashkil etadi.

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

Ulug'nor	20,9
Xo'jaobod	14,7
Andijon sh.	13,8
Bo'ston	12,9
Xonobod sh.	10,4
Marhamat	9,5
Jalaquduq	9,3
Baliqchi	9,2
Andijon	9,0
Qo'rg'ontepa	8,8
Paxtaobod	8,6
Oltinko'l	7,8
Asaka	7,4
Buloqboshi	6,8
Izboskan	6,6
Shahrixon	6,5

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra

Eng yuqori ko'rsatkich

Ulug'nor tumani
20,9 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Andijon tumani
9,0 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Shahrixon tumani
6,5 birlik.

2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni **har 1000** aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ulug'nor tumanida **20,9** birlik, Xo'jaobod tumanida **14,7** birlik, Andijon shahrida **13,8** birlik, Bo'ston tumanida **12,9** birlik, Xonobod shahrida **10,4** birlik, Marhamat tumanida **9,5** birlik, Jalaquduq tumanida **9,3** birlik, Baliqchi tumanida **9,2** birlik, Andijon tumanida **9,0** birlikni tashkil etadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Ulug'nor tumani
20,9

Xo'jaobod tumani
14,7

Andijon shahar
13,8

Bo'ston tumani
12,9

Xonaobod shahar
10,4

Marhamat tumani
9,5


Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

Hududlar bo'yicha 2023-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

■ 2022- y. ■ 2023- y.

166	Oltinko'l	132
286	Andijon	240
333	Baliqchi	136
114	Bo'ston	93
104	Buloqboshi	70
146	Jalaquduq	69
208	Izboskan	123
61	Ulug'nor	69
198	Qo'rg'ontepa	130
264	Asaka	171
169	Marhamat	136
280	Shahrixon	134
210	Paxtaobod	96
199	Xo'jaobod	109
571	Andijon sh.	532
45	Xonobod sh.	20

2023- yilning yanvar-iyun yangi tashkilotilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-iyun hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Andijon shahri – 23,5 %, Andijon tumani – 10,6 %, Asaka tumani – 7,6 %, Marhamat tumani – 6,0 %, Baliqchi tumani – 6,0 %, Shahrixon tumani – 5,9 %, Oltinko'l tumani – 5,8 %, hissaloriga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




■ 2022-y. ■ 2023-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023 yil yanvar-iyun oylari davomida Andijon viloyati bo'yicha jami **15 046** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **5 900** (yoki **39,2 %**) ta, sanoat sohasida - **4 399** ta (yoki **29,2 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **2 148** ta (yoki **14,3 %**) va qurilish sohasida - **1 147** ta (yoki **7,6 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **5 900** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 5 yilda tashkil etilgan korxonalarining **39,2** %ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

2023-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da



2023-yil yanvar-iyun yilda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **66,8** foizni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan **0,4** foizga oshgan. Ortishiga asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.


2023-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,2%**ni, yo'lovchi aylanmasida **94,2%**ni, yo'lovchi tashishda **96,8%**ni, savdoda **92,9%**ni, qurilishda **98,2%**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha YAHMdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy tarmoqlardagi hajmi va ulushi dinamikalari


Kichik tadbirkorlikda sanoat (2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida)



Kichik tadbirkorlikda qurilish (2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida)




Kichik tadbirkorlikda investitsiya (2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida)




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy tarmoqlardagi hajmi va ulushi dinamikalari


Kichik tadbirkorlikda qishloq xo'jaligi (2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida)



Kichik tadbirkorlikda chakana savdo (2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida)



Kichik tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish (2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat sohasidagi hajmi va ulushi

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh.	1132,3
Shahrixon	739,2
Baliqchi	655,9
Xo'jaobod	553,7
Andijon	535,5
Izboskan	436,7
Jalaquduq	427,3
Xonobod sh.	415,6
Qo'rg'ontepa	334,9
Asaka	314,0
Oltinko'l	302,4
Buloqboshi	241,3
Paxtaobod	211,8
Ulug'nor	157,3
Marhamat	136,4
Bo'ston	114,1

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 708,4 milliard** so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (**1 132,3 mlrd. so'm**), Shahrixon tumani (**739,2 mlrd. so'm**), Baliqchi tumani (**655,9 mlrd. so'm**), Xo'jaobod tumani (**553,7 mlrd. so'm**) Andijon tumani (**535,5 mlrd. so'm**) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi. Bo'ston tumani (**114,1 mlrd. so'm**) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


Andijon sh.	16,9
Shahrixon	11,0
Baliqchi	9,8
Xo'jaobod	8,3
Andijon	8,0
Izboskan	6,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat sohasidagi hajmi va ulushi

2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



2023 - yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqbohi tumani (100,0 %), Izboskan tumani (100,0 %), Shahrixon tumani (88,9 %), Andijon tumani (87,5 %), Baliqchi tumani (77,1 %), Jalaquduq tumani (65,2 %), Oltinko'l tumani (64,6 %), Ulug'nor tumani (63,0 %), Xo'jaobod tumani (58,3 %) va Paxtaobod (50,3 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi mlrd so'm, va ulushi %




2018-2023 yil yanvar-iyun oylarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 356,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **98,2** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (**1 155,4 mlrd. so'm**), Andijon tumani (**418,3 mlrd. so'm**), Shahrixon tumani (**253,6 mlrd. so'm**), Oltinko'l tumani (**181,9 mlrd. so'm**), Paxtaobod tumani (**175,2 mlrd. so'm**), Qo'rg'ontepa tumani (**154,4 mlrd. so'm**) hamda Xo'jaobod tumani (**143,8 mlrd. so'm**) qayd etildi.


2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



■ hajmi ■ foizi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 763,6** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **70,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,1 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Buloqboshi tumanida (**2 150,2 mlrd. so'm**), Andijon shahar (**664,3 mlrd. so'm**), Xo`jaobod tumanida (**325,1 mlrd. so'm**) Oltinko`l tumani (**248,6 mlrd. so'm**), Shahrixon tumani (**182,3 mlrd. so'm**), Andijon tumani (**177,5 mlrd. so'm**), Baliqchi tumanida (**171,7 mlrd. so'm**) hamda qayd etildi, eng past hajm bajargan tuman Honaobod shahar (**39,0 mlrd. so'm**) bo`ldi.

2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi faoliyati

2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **15 402,1** milliard so'mni yoki jami Qishloq xo'jaligi hajmining **98,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **113,6 %** ni tashkil qildi.

2018-y 2019-y 2020-y 2021-y 2022-y 2023-y


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Asaka (**1 655,5 mlrd. so'm**), Jalaquduq (**1 520,8 mlrd. so'm**), Qo'rg'ontepa (**1 247,6 mlrd. so'm**) Shahrixon tumani (**1 205,4 mlrd. so'm**), Paxtaobod tumani (**1 193,8 mlrd. so'm**), Marhamat tumani (**1 126,9 mlrd. so'm**), hamda Buloqboshi (**798,1 mlrd. so'm**) tumanlarda qayd etildi.

2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y.2019- y.2020- y.2021- y.2022- y.2023- y.

2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati

2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmlarining o'zgarish dinamikasi, trln so'm da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **8 560,3** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,0 %** ni tashkil qildi.

2023 yil yanvar- iyun hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

Andijon sh.	2189,1
Shahrixon	1151,1
Asaka	738,4
Qo'rg'ontepa	605,1
Baliqchi	577,4
Andijon	561,7
Marhamat	410,0
Paxtaobod	400,3
Oltinko'l	358,6
Xo'jaobod	344,8
Izboskan	310,1
Buloqboshi	286,7
Jalaquduq	282,9
Bo'ston	132,3
Ulug'nor	124,2
Xonobod sh.	87,5


2018-2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**2 189,1 mlrd. so'm**), Shahrixon (**1151,1 mlrd. so'm**), Asaka (**738,4 mlrd. so'm**), Qo'rg'ontepa (**605,1 mlrd. so'm**), Andijon (**561,7 mlrd. so'm**) va Marhamat (**410,0 mlrd. so'm**) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi. Eng past hajm esa Xonobod shahriga (**87,5 mlrd. so'm**) to'g'ri kelmoqda,

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati

2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6401,4 mlrd.** so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,4 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,3%** ni tashkil qildi. Jami hizmatlardagi kichik biznesning ulushi esa 1,3 % ga kamaygan,

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (**2 317,1 mlrd.** so'm), Andijon (**418,7 mlrd.** so'm), Asaka (**415,4 mlrd.** so'm), Baliqchi (**564,3 mlrd.** so'm), Xo'jaobod (**329,6 mlrd.** so'm), Izboskan (**307,6 mlrd.** so'm), Jalaquduq (**305,3 mlrd.** so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Eng past hajm esa Ulug'nor tumanida (**89,1 mlrd.** so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo aylanmasida tutgan o'rni

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi % da .




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti


2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik takorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **6,3 million** AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **1,1 %** ini tashkil etdi.

2018- y 2019- y 2020- y 2021- y 2022- y 2023- y.


2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi hamda Ulug'nor tumanlarida – 100 %, Oltinko'l tumanida – 86,5 %, Andijon tumanida – 84,9 %, Bo'ston tumanida – 84,8 %, Izboskan tumanida – 84,1 %, Shahrixon tumanida – 81,8 %, Xonaobod shahrida – 81,2 % va Marhamat tumanida – 60,6 %, eng past ko'rsatkich Baliqchi tumanida – 5,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **40,5** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **2,4** % ini tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik


subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – 100,4 %, Jalaquduq tumanida – 97,6 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 94,6 %, Ulug'nor tumanida – 93,1 %, Oltinko'l tumanida – 90,1 %, Izboskan tumanida – 72,1 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Asaka tumanida – 1,0 % ni tashkil etdi.

Buloqboshi	100,0
Jalaquduq	97,6
Qo'rg'ontepa	94,6
Ulug'nor	93,1
Oltinko'l	90,1
Izboskan	72,1
Shahrixon	68,3
Marhamat	67,6
Andijon	65,9
Paxtaobod	63,6
Bo'ston	63,6
Baliqchi	54,9
Xo`jaobod	39,9
Andijon sh	27,5
Xonaobod sh	10,0
Asaka	1,0


2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




95,4%

Yuk
tashishda




82,1%

Yuk
aylanmasida



96,8%

Yo'lovchi
tashishda



94,2%

Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,4** % ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,3** % ni tashkil qildi.


2023- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **82,1** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,4** % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,8** % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,3** % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,2** % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,1** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil II- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 327** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tanlab olindi. Ularning **431 (32,5 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **745 (56,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **77 (5,8%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan. Qolgan **74 (5,6%)** ta korxonalar savolnomada ishtirok etmadi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **42,9 % (570 ta)**, xizmatlar sohasida – **26,1 % (347 ta)**, sanoatda – **17,8 % (236 ta)**, qurilishda – **9,0 % (119 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,1 % (55 ta)**ni tashkil etdi.

2023- yil II- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023-yil II-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Andijon shahri (374 ta), Andijon tumani (106 ta), Asaka (100 ta), Shahrixon tumani (95 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **563** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **745** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **182** taga oshgan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **253** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **431** ta yoki **178** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilda **25** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **77** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **52** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023 yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **497** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **762** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **265** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **324** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **1068** ta yoki **744** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilda **20** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **143** tani tashkil etib, **123** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018 - yilda **32,5 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 - yilga kelib esa **37,7 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **2,2 %** birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018 - yilda **56,4 %** bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023- yilda **57,6 %** yoki **1,2 %** oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **7,4 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning II- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **47,6** %ni, xizmatlar sohasida – **23,0** % ni, sanoatda – **20,9** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **40,5** % ni, xizmatlar sohasida – **27,6** % ni, sanoatda – **16,2** % ni, qurilishda – **11,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **44,1** %ni, sanoatda – **19,5** %ni, xizmatlar sohasida – **16,9** %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	27,7	52,8	7,1
Band bo'lganlar soni	13,6	68,0	6,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	32,1	61,7	6,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,8	51,4	7,5
Raqobat muhiti	31,2	50,8	5,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	37,4	53,1	3,8
Band bo'lganlar soni	21,2	68,4	4,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,8	55,9	4,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,1	63,4	4,9
Raqobat muhiti	35,6	55,1	3,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli